



## O'ZBEKISTONNING JAHON BOZORIGA INTEGRATSIYALASHUV STRATEGIYASI VA UNING USTUVOR YO'NALISHLARI

***Turayev Abduvoxid Kuldashevich***

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

*Raqamli iqtisodiyot kafedrası assistenti*

*[abduvoxidturayev70@gmail.com](mailto:abduvoxidturayev70@gmail.com),*

*XIM-123 guruh talabasi G'ayratov Mirabbos*

*XIM-123 guruh talabasi Yuldashev Xudonazar*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuv strategiyasi, uning mazmun-mohiyati hamda ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi. Xususan, mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish, tashqi savdoni erkinlashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish jarayonlari yoritib beriladi. Shuningdek, eksport salohiyatini oshirish, milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini kuchaytirish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish va raqamli iqtisodiyotga o'tish kabi ustuvor yo'nalishlar asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar.** Integratsiyalashuv, investitsiya, eksport, import, tashqi savdo, ishlab chiqarish.

**Аннотация:** В данной статье анализируются стратегия интеграции Узбекистана в мировой рынок, её сущность и приоритетные направления. В частности, освещаются процессы либерализации экономики страны, развития внешней торговли, улучшения инвестиционного климата и расширения сотрудничества с международными экономическими организациями. Также обосновываются такие приоритетные направления, как повышение экспортного потенциала, усиление конкурентоспособности национальной продукции, развитие транспортно-логистической инфраструктуры и переход к цифровой экономике.



**Ключевые слова:** интеграция, инвестиции, экспорт, импорт, внешняя торговля, производство.

**Annotation:** This article analyzes the strategy of Uzbekistan's integration into the global market, its essence, and priority directions. In particular, it highlights the processes of economic liberalization, development of foreign trade, improvement of the investment climate, and expansion of cooperation with international economic organizations. The study also substantiates key priority areas such as increasing export potential, enhancing the competitiveness of national products, developing transport and logistics infrastructure, and transitioning to a digital economy.

**Keywords:** integration, investment, export, import, foreign trade, production.

## **Kirish.**

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti tobora globallashib borayotgan bir sharoitda har bir davlat o'zining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun xalqaro iqtisodiy tizimga faol integratsiyalashishga intilmoqda. O'zbekiston ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bosqichma-bosqich jahon bozoriga kirib borish siyosatini amalga oshirib kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, savdo erkinligini ta'minlash va investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuv strategiyasi, avvalo, milliy iqtisodiyotning ochiqligini ta'minlash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda xalqaro savdo tizimida faol ishtirok etishga qaratilgan. Ushbu strategiya bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bilan ajralib turadi, ya'ni dastlab ichki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, keyinchalik esa tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish orqali global bozorlarga chiqish ko'zda tutiladi. Shu jihatdan, integratsiyalashuv strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur strategiyaning ustuvor yo'nalishlariga alohida to'xtaladigan bo'lsak, ular qatoriga eksport salohiyatini oshirish va uni diversifikatsiya qilish, sanoatni modernizatsiya



qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish kiradi. Shuningdek, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, savdo to'raqlarini kamaytirish va milliy mahsulotlarning jahon standartlariga mosligini ta'minlash ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvi nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki mamlakatning global iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **Adabiyotlar tahlili.**

O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvi masalasi mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng va chuqur o'rganilgan. Bu masalada biz ko'plab olimlarning iqtisodiy qarashlari, fikrlari va ilmiy izlanishlarini ko'rib chiqishimiz mumkin. Xususan, akademik Sodiq Safoyev o'z ilmiy ishlari va chiqishlarida O'zbekistonning ochiq iqtisodiyotga o'tishi mamlakat taraqqiyotining muhim sharti ekanini ta'kidlaydi [1]. Uning fikricha, jahon bozoriga integratsiyalashuv nafaqat tashqi savdo hajmini oshiradi, balki milliy iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. U, ayniqsa, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va global savdo tizimiga faol qo'shilishni ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatadi.

Iqtisodchi olim Yuldashev Shavkat esa o'z tadqiqotlarida integratsiya jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish zarurligini qayd etadi [2]. Uning ta'kidlashicha, O'zbekiston jahon bozoriga chiqishda avvalo ichki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashi, milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashi va eksport tarkibini diversifikatsiya qilishi lozim. Olim integratsiyani "milliy iqtisodiyotning tashqi omillar bilan uyg'unlashuvi orqali barqaror o'sishga erishish jarayoni" sifatida tariflaydi. Bu orqali mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorij tajribasidan samarali foydalanish va xorijiy tajribani mahalliy iqtisodiyotga jalb qilish barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy elementlari sifatida qaraladi.

Shuningdek, professor Abdug'aniyev Abduvali agrar sektor misolida integratsiya masalalarini tahlil qilib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish uchun xalqaro standartlarni joriy etish muhimligini ta'kidlaydi [3].



Uning fikricha, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va logistika tizimini rivojlantirish O‘zbekistonning global bozorga muvaffaqiyatli kirib borishida hal qiluvchi omillardan biridir. Bu orqali qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yanada sifatli va talab darajasida yetishtirish imkonini bertadi.

Boshqa bir qator mahalliy tadqiqotchilar, jumladan Raximov Baxtiyor, integratsiya jarayonida investitsiya muhitining ahamiyatiga alohida urg‘u beradilar [4]. Uning fikricha, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali zamonaviy texnologiyalar kirib keladi, bu esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, ular davlat tomonidan qulay huquqiy va institutsional sharoitlar yaratish zarurligini qayd etadilar.

O‘zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalshuv tahlil qilishda yana bir qator o‘zbek olimlarining fikrlariga murojaat qilish maqsadga muvofiq. Jumladan, akademik G‘aniyev Qobiljon o‘z ilmiy tadqiqotlarida O‘zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvini iqtisodiy o‘shishning muhim drayveri sifatida baholaydi [5]. Uning fikricha, integratsiya jarayoni mamlakatning ichki resurslaridan samarali foydalanish bilan birga, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Olim ayniqsa sanoatni modernizatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport geografiyasini diversifikatsiya qilishni muhim ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatadi.

Shuningdek, iqtisodchi Olim Karimov Ixtiyor o‘z ilmiy ishlari va maqolalarida integratsiyalashuv jarayonini institutsional islohotlar bilan chambarchas bog‘liq holda tahlil qiladi [6]. Uning ta’kidlashicha, jahon bozoriga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy va boshqaruv tizimlarini ham takomillashtirish zarur. U integratsiyani “milliy iqtisodiyotning global iqtisodiy tizimga samarali moslashuvi va unda faol ishtirok etishi” sifatida tariflaydi. Shuningdek, u kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishni asosiy yo‘nalishlar sifatida alohida ta’kidlaydi.

Umuman olganda, o‘zbek olimlarining ilmiy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvi izchil islohotlar, ochiq iqtisodiy



siyosat va milliy manfaatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Ularning fikrlarida eksportni kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashish asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida e'tirof etiladi.

## Tahlil va natijalar

So'nggi yillarda O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvi sezilarli darajada faollashdi. Bu yurtimizning iqtisodiy o'sishiga va jahon bozorigha shiddat bilan kirib borishiga katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida tashqi savdo hajmi, eksport ko'rsatkichlari va xorijiy investitsiyalar oqimi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Xususan, valyuta bozorining erkinlashtirilishi, bojxona va soliq tizimidagi yengilliklar, shuningdek, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi mamlakatning global iqtisodiyotga moslashuvini tezlashtirdi.

Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi so'nggi yillarda izchil oshib bormoqda. Xususan, eksport tarkibida xomashyo ulushi kamayib, tayyor mahsulotlar va xizmatlar ulushi ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu esa mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi oshayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi ham integratsiya jarayonining muhim natijalaridan biridir.

## 1-jadval.

**O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvi bilan bog'liq asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar keltirilgan.**

Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Tashqi savdo aylanmasi (mlrd \$)	36.3	42.1	50.0	57.8	62.0
Eksport hajmi (mlrd \$)	15.1	16.6	19.3	23.0	25.5
Import hajmi (mlrd \$)	21.2	25.5	30.7	34.8	36.5



Xorijiy investitsiyalar (mlrd \$)	6.6	7.5	8.9	10.0	11.2
YAIM o'zlash sur'ati (%)	1.9	7.4	5.7	6.0	6.2

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tashqi savdo hajmi yil sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, eksport hajmining oshishi ijobiy holat bo'lib, bu O'zbekiston mahsulotlarining xalqaro bozorda tobora ko'proq talab qilinayotganini anglatadi. Shu bilan birga, import hajmi ham yuqori bo'lib qolmoqda, bu esa ichki ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvi quyidagi ustuvor yo'nalishlar orqali amalga oshirilmoqda:

- Eksportni diversifikatsiya qilish,
- Sanoatni modernizatsiya qilish,
- Transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish,
- Raqamli iqtisodiyotni kengaytirish va investitsiya muhitini yaxshilash.

Ayniqsa, xalqaro transport yo'laklarining rivojlanishi mamlakatning tranzit salohiyatini oshirib, tashqi savdo samaradorligini kuchaytirmoqda. Bu orqali O'zbekiston o'z hududida xalqaro transport yo'lagini hosil qilmoqda. Natijada, bir nechta davlatlarning transport yo'lagini bog'lab, transit yo'lagi orqali ham daromadga erishmoqda.

### **Xulosa va takliflar.**

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvi izchil va ijobiy yo'nalishda rivojlanib bormoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatning tashqi savdo hajmi oshdi, eksport tarkibi yaxshilandi va xorijiy investitsiyalar oqimi sezilarli darajada ko'paydi. Bu esa O'zbekistonning global iqtisodiy tizimdagi o'rni mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, iqtisodiyotning ochiqligi ta'minlanayotgani, raqobat muhiti shakllanayotgani va zamonaviy infratuzilma rivojlanayotgani integratsiya jarayonining muhim natijalari sifatida namoyon bo'lmoqda.



Shu bilan birga, tahlillar ayrim muammolar ham mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, import hajmining yuqoriligi, ayrim tarmoqlarda raqobatbardoshlikning yetarli darajada emasligi hamda eksport tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushining hali ham kamligi e'tiborni talab etadi. Bu esa mamlakat oldida hali bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar mavjud ekanini anglatadi.

Mazkur holatdan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Birinchidan, eksportni yanada diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish zarur. Bu orqali O'zbekiston jahon bozorida mustahkam o'rin egallashi mumkin.

Ikkinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali ichki ishlab chiqarishni kuchaytirish lozim. Bu importga qaramlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Bundan tashqari, transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish va xalqaro transport yo'laklaridan samarali foydalanish O'zbekistonning tranzit salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Ushbu jarayonni yanada chuqurlashtirish uchun izchil islohotlarni davom ettirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarur. Ana shunda mamlakat global iqtisodiy makonda yanada kuchli va barqaror o'rin egallaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] S. Safojev, O'zbekiston diplomatiyasi tarixi, Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi nashriyoti, 2019.
- [2] Sh. Yuldashev, "O'zbekiston iqtisodiyotining jahon bozoriga integratsiyalashuvi masalalari," Iqtisodiyot va ta'lim, no. 3, pp. 45–52, 2020.



- [3] A. Abdugʻaniyev, Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyoti, Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
- [4] B. Raximov, “Investitsiya muhitini yaxshilash va iqtisodiy oʻsish omillari,” Bozor, pul va kredit, no. 5, pp. 23–28, 2021.
- [5] Q. Gʻaniyev, “Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida tashqi iqtisodiy aloqalarning oʻrni,” Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, no. 2, pp. 60–66, 2019.
- [6] I. Karimov, “Institutsional islohotlar va iqtisodiy integratsiya,” Iqtisodiyot va innovatsiyalar, no. 4, pp. 12–18, 2022
- [7] R. Xolmurodov, “Oʻzbekistonning eksport salohiyatini oshirish strategiyasi,” Xalqaro iqtisodiyot va tadqiqotlar jurnali, no. 1, pp. 34–42, 2021.
- [8] N. Rasulov, Oʻzbekistonning global iqtisodiy tizimga integratsiyasi, Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.
- [9] M. Ergashev, “Raqamli iqtisodiyot va Oʻzbekistonning jahon bozoriga chiqishi,” Axborot texnologiyalari va iqtisodiyot, no. 2, pp. 15–22, 2022.
- [10] Sh. Tursunov, “Investitsiya muhitini yaxshilash va jahon bozoriga integratsiyalashuv,” Iqtisodiy rivojlanish va siyosat, no. 4, pp. 50–58, 2021.